

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrası**

Qo'lyozma huquqida

Sheraliyeva Umidaxon

**Mavzu: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar
nutqini o'stirishda didaktik o'yin mashg'ulotlaridan
foydalanish**

5 1 1 1 8 0 0 – “M A K T A B G A C H A T A ‘ L I M”

ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

**bitiruv malakaviy
ish**

Ish rahbari:

dots. F. Kiyikboyev

A n d i j o n - 2 0 1 7

M u n d a r i j a:

Kirish	3
I bob. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish ishining izchilligi va zaruriyligi.	7
1-§. Maktabgacha tarbiya tizimida ona tili.	8
2-§. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishning nazariy-metodik asoslari.	13
II bob. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish xususida	25
1-§. Maktabgacha ta’lim muassasalarida didaktik o‘yinlardan foydalanish darajasi tahlili.	26
1-§. 1. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish usullari.	29
1-§. 2. O‘rta guruh bolalarining nutqini o‘stirishda didaktik o‘yin turlaridan foydalanish usullari.	31
1-§. 3. Katta guruh bolalarining nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish	33
2-§. Nutq o‘stirishda ishlatiladigan didaktik o‘yinlar turlari, o‘tkazilish usullari va tajribalar tahlili.	36
Xulosa.	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	53

Kirish

Bugungi kunda xalq ta'limi sohasida yig'ilib qolgan rang-barang muammolarning o'z yechimini topish vaqti keldi. Ana shunday muammolardan biri esa Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan ishlashni, ularning ongi, tafakkurini o'stirish, nutqini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish, ilg'or ta'lim va tarbiya usullarini amaliyotga joriy qilishdir. Zero, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish"¹ bugungi kunda davlatimiz siyosatining bosh masalalaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarimizni har tomonlama yetuk, yuksak intellektual salohiyatli, ruhan sog'lom va jismonan baquvvat, aqlan teran bo'lib yetishishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, ularning kelajagi porloq bo'lishi uchun kafolatli ta'lim tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Bola juda murg'akligidan boshlab o'ylashga, fikr yuritishga, mushohada qilishga o'rgatib boriladi. Bolaning ongi va tafakkurini o'stirish esa ularning o'z ona tiliga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalarning bu imkoniyatlardan foydalanayotganligi quvonarli hol, albatta. Lekin, afsuski, bugungi kunda Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar nutqiga (bolalar bog'chalariga bormaydigan bolalar ham bundan mustasno emas) e'tibor bersak, ularning ona tilining ifoda imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmayotganining guvohi bo'lamiz. To'g'ri, kichik yoshdagi bolalar oldiga adabiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг "2017 – 2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори \ "Халқ сўзи", 2016 йил, 29 декабрь сони.

nutqning hamma talablarini qo'yib bo'lmaydi, chuni ular xali ona tili grammatikasi qonun-qoidolari haqida hech qanday nazariy ma'lumotlarga ega bo'lmagan holatda bo'ladilar. Lekin shunday bo'lsa-da, kelajagimiz ertasi, vorislarimiz bo'lgan bolalarni juda kichkinaligida boshlab go'zal ona tilimizning ifoda imkoniyatlaridan bahramand qilib borish, ularni to'g'ri talaffuz me'yorlari bilan tanishtirish, so'zlarni tanlab, maqsadga muvofiq ishlata olish, o'z fikrini sodda, ixcham, aniq qilib tasvirlashga o'rgatish, tilning tozaligiga e'tibor berishni o'rgatib borish zarur. Bu masalalar esa bolalar bog'chasida, shu bilan birga, oilada hal qilinadigan kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Chunki xalqimizda "Bo'lar bola boshidan" deb bejiz aytilmagan. Bolaning qanchalik tarbiya ko'rganligi uning nutqida aks etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning d o l z a r b l i g i. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarimizni har tomonlama yetuk, ruhan sog'lom va jismonan baquvvat, aqlan teran bo'lib yetishishlari, ularda chiroyli nutq madaniyatini shakllantirib borishning usul va vositalarini belgilash va uni ishda ifodalab berish ishimizning dolzarbligini taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy yangiligi – MTM (maktabgacha ta'lim muassasasi) larda bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashda didaktik o'yin mashg'ulotlaridan foydalanishning o'ziga xos tomonlarini ifodalab berish.

BMI ning m a q s a d i – MTM ning nutq o'stirish bilan bog'liq guruh mashg'ulotlarida didaktik o'yin mashg'ulotlaridan foydalanishning usul va vositalarini ishda ifodalab berish, tajriba-sinov ishlarini tahlil etish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan olib boriladigan nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalar nutqini o'stirishning quyidagi v a z i f a l a r i doimo ko'ndalang bo'lib turadi:

- Bolalarga fikrini og'zaki bayon qilishlari uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar tizimini berish.
- Bolalarda tovush madaniyatini tarbiyalash.
- Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish.
- Bolalarda monologik nutqni shakllantirish.

- Bolalarda dialogik nutqni shakllantirish.
- Bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatish.
- Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
- Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida quyidagi tamoyillarga ham muntazam ravishda amal qilib borish talab etiladi:

- Nutq o'stirish mashqlarini nutq o'stirish mashg'ulotlaridan tashqari bir qator tadbirlar uyushtirib borish.
- Nutq o'stirishda bolalarning hayotiy tajribalari va oilaviy tadbirlarga asoslanish.
- Nutq o'stirish mashqlarini izchillik bilan va muayyan tizimda o'tkazib borish.
- Nutq o'stirish ishlarini bolalarning ijodiy faoliyatlari asosida tashkil qilish.
- Bolalarda nutq madaniyatini shakllantirib borish.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalar va tamoyillar yuzasidan bir qancha metodik qo'llanmalarni o'rganib, tarbiyachilarning ish tajribalari bilan tanishib, shuningdek, Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining mashg'ulotlarini kuzatib, bolalar nutqini tahlil qilishga harakat qildik hamda bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini belgiladik va oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- Maktabgacha ta'lim muassasasi katta guruhi tarbiyalanuvchilarining nutqi bilan tanishish, og'zaki nutqining sifat darajasini belgilash.
- Bolalar og'zaki nutqining asosiy xususiyatlarini belgilash.
- Tarbiyachilarning nutq o'stirish usullaridan foydalanish darajalarini o'rganish va tahlil qilish.
- Olib borilgan kuzatuvlar asosida bolalar nutqi ustida ishlash usullarining optimal turlarini topish va ularni tekshirib ko'rish.

- Bolalar nutqini o‘stirishda yangi vositalarni o‘ylab topish va amalda sinab ko‘rish.
- BMI mavzusi bo‘yicha to‘plangan barcha materiallarni sistemalashtirish hamda ishni rasmiylashtirish.

Kuzatuvlar hamda tajribalar Andijon shahridagi 40 – davlat maxsus maktabgacha ta’lim muassasasi, ya’ni bolalar bog‘chasining Qirg‘izboyeva Zamiraxon opa tarbiyachilik qilayotgan katta guruhida olib borildi.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishimiz uchun material to‘plash va rasmiylashtirish jarayonida bir qancha tadqiqot usullari – kuzatuv, tajriba, suhbat, savol-javob turlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, 2 ta bob, xulosa qismlaridan, ilovalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizning umumiy hajmi 54 sahifadan hamda 9 911 ta so‘zdan iborat.

I bob. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish ishining izchilligi va zaruriyligi

Ushbu bob 2 paragrafdan iborat bo‘lib, bu bobda quyidagi masalalar xususida fikr yuritiladi:

1-§. Maktabgacha tarbiya tizimida ona tili

2-§. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishning nazariy-
metodik asoslari

1-§. Maktabgacha ta'lim tizimida ona tili

Ona tili o'sib kelayotgan yosh avlodni aqliy va axloqiy tomondan tarbiyalash manbai va vositasidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotida bola nutqini o'stirish tarbiyada juda muhim vazifalardan biridir. Chunki ona tilini o'rganish bola ongining taraqqiy etishi, shaxsning har tomonlama kamol topishiga zamin tayyorlaydi. Ona tili bola uchun shunday bir kalitki, u orqali bola maktabda bilim asoslarini ochayotganda, bilim xazinalari ochiladi. Tarbiyachi ona tilidan bolalarning ma'naviy qiyofalarini, ruhiy olamini shakllantirishda ularga ta'sir etuvchi va bilim beruvchi hamda ularni tarbiyalovchi muhim vosita sifatida foydalanadi.

“Bolalar bog'chalarining oldida bolalarni o'z fikrini, istak-orzusini, hissiyotini to'g'ri va aniq ifoda etish, ona tilidan kishilar bilan munosabatga kirishishda, hayotni o'rganish jarayonida foydalanishga o'rgatish kabi katta va muhim vazifa turadi.”¹

Bolalar so'z boyligini oshirish ularning butun borliq, atrof olam, o'z aatrofidagi insonlar, voqeliklar bilan bog'liq fikrini o'stirish bilan bog'lab olib borilishi lozim. Tarbiyachi bolalar nutqini va fikrini atrof hayot bilan, oilaviy turmush, bolalar bog'chasining jamoaviy hayoti bilan, mamlakatimizning ijtimoiy hayotidagi voqea va hodisalar, o'zbek xalqining mehnati, atrof olam, tabiat bilan tanishtirish asosida o'stirib boradi. Tarbiyachi bolalarga ular ko'rgan narsalarining nomini aytadi, kuzatgan, ko'rgan hodisalarini so'z bilan tushuntiradi, ifodalab beradi.

Shunday qilib, nutq o'stirish jarayonida bolalarning bilish faolligi oshadi, mustahkamlanadi.

Tarbiyachi maxsus usullar yordamida bolalarni faqat lozim bo'lgan so'zlarning ma'nosini tushunibgina qolmay, balki undan o'z nutqlarida faol foydalanishlariga, ularda so'zga qiziqish va diqqatning o'sishiga erishadi (Nima uchun bunday gapiradi? Shunday gapirish mumkinmi? Qanday aytish mumkin?).

¹ Razbayeva M.E., Ahmedova X.A. Nutq o'stirish metodikasi. Toshkent, “O'qituvchi”, 1995, 9-bet.

Bolalarni kattalarning ismi va otasining ismi bilan atash, soʻzlash, oʻrtoqlarining ismiga hurmat maʼnosini ifodalovchi maxsus qoʻshimchalarni qoʻshib chaqirish (Bahrom – Bahromjon), rahmat, marhamat, salom, hayr, salomat boʻling, mumkin boʻlsa, kechiring, yoqimli ishtaha, yaxshi dam oldingizmi, hayrli tun, hayrli tong singari hurmatni ifodalovchi soʻz va iboralardan oʻrinli foydalanishga oʻrgatish zarur.

Bolalarning kattalarga nisbatan oʻta erkalik yoki shilqimlik qilishlariga yoʻl qoʻymaslik, kattalarning orqasiga osilib olib gapirish, kattalar gapiga ruxsatsiz aralashish, oʻrinli-oʻrinsiz gapiraverish kabi hollarning boʻlmasligiga erishish lozim.

Muomalada maʼlum tartib, muloyimlikni tarbiyalash bolalarda yuqori axloq xususiyatlarini tarbiyalash bilan chambarchas bogʻliqdir. Ularning muloyimligi, madaniy xulq-atvori kishilarga munosabatida, qarindosh-urugʻlari va yaqin kishilarga muhabbatida, keksalarga boʻlgan izzat - hurmatida, oʻrtoqlariga boʻlgan doʻstona munosabatida namoyon boʻlmogʻi lozim.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Lugʻat – soʻz boyligimiz, lugʻat bu tilning qurilish materialidir. Grammatika esa soʻzlarni oʻzlashtirish, nutq jarayonida ularni bir-biriga toʻgʻri bogʻlay olish, qoʻshimchalardan oʻrinli foydalanish va soʻzlardan gap tuzish meʼyorlarini belgilab beradi.

Tarbiyachi bolalarning nutqini oʻstirish uchun maxsus oʻyinlar va mashqlar uyushtiradi.

Tovush madaniyatini tarbiyalash – ona tilini puxta oʻzlashtirish, oʻrganish imkonini beradi.

Bola kattalarning toʻgʻri taʼsirida taqlid qilish va oʻrganish orqali soʻzlarni, tovushlarni toʻgʻri talaffuz qila boshlaydi, soʻz urgʻusini, nutqning muhim xususiyatlaridan biri boʻlgan ohangdorlikni oʻzlashtiradi. Har qanday soʻz maʼlum ohang yordamida talaffuz etiladi, soʻzning ohangi uning libosi hisoblanadi. Tovushga, tovush yordamida shakllangan soʻzning talaffuziga

bo'lgan e'tiborni to'g'ri shakllantirish, ya'ni orfoepik me'yorlarga amal qilish bolalarda to'g'ri nutq madaniyatining shakllanishiga zamin yaratadi.

Dialogik nutqni shakllantirish va bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatish. Bolalarda so'zlashuv nutqini shakllantirish ular hayotining birinchi yilidan boshlanadi. Bolani o'ziga qarata aytilgan nutqni eshitish va tushunishga, savollarga to'g'ri javob berishga va so'rashga o'rgatiladi. So'zlashuv nutqining shakllanishida yutuqqa erishish ko'p jihatdan bolaning so'z boyligini qanchalik egallaganligiga va tilning grammatik qurilishini qanchalik o'zlashtirganligiga bog'liqdir.

So'zlashuv nutqiga o'rgatilganda bolaning so'zlashgan, suhbatlashgan vaqtda o'zini madaniy tuta bilishi, tarbiyali bo'lishi diqqat markazida turishi kerak.

Shuning uchun ham bolani so'zlashayotgan vaqtda o'zini to'g'ri tuta olishga, gapirayotganda tinch turish, so'zlashayotganda suhbatdoshining ko'ziga qarab munosabatda bo'lish, kattalar bilan muomalada boshni yerga egib turmaslik, gapirayotgan kishining so'zini bo'lmaslikka, savolga tez va aniq javob berishga, shuningdek, shoshilmaslikka, jummalarni pala-partish tuzmaslikka o'rgatish lozim.

Monologik nutq bola lug'atini faollashtiradi, uni jumla tuzishga, fikrni izchil bayon etishga o'rgatadi.

Bolalarda og'zaki hikoyani eshita olish, uning mazmunini tushunish, eshitganlariga taqlid qilib, qayta hikoya qilish malakalari shakllantiriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mustaqil hikoya tuzishga, narsalarni, o'yinchoqlarni, hayvonlarni tasvirlab berishga, rasmga qarab tarbiyachi bergan mazmun asosida hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. Bunda bolalarning mustaqilligi va ijodiy faolligi namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar osoyishta, izchillikka rioya qilib hikoyalashga, o'z tengdoshlari oldida va notanish kishilar o'rtasida so'zlay olishga o'rgatiladi.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama tarbiyalovchi vositalardan biridir. Maktabgacha ta'lim

muassasalarida tarbiyalanuvchilar bolalar adabiyoti namoyandalarining eng yaxshi asarlari hamda qo'shni va xorij xalqlari yozuvchilarining kitoblari bilan tanishtiriladi.

Tarbiyachi bolalarda badiiy asarlarni eshitish uni tushunish, fikr-mulohazalarini so'zlash, qahramonlarga, ularning xatti-harakatlariga nisbatan o'zlarining munosabatlarini aytib bera olish kabi ba'zi bir elementar malakalarni shakllantiradi. Bolalar muayyan kichik she'rlarni eslab qolish va uni yoddan o'qib berishga o'rganishlari lozim.

Tarbiyachi bolalarda bilim manbai sifatida kitobga qiziqish uyg'otishi, unga nisbatan to'g'ri va ehtiyotkorlik, xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish malakasini shakllantirishi lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayotini shunday tashkil qilish kerakki, badiiy so'z faqat mashg'ulotdagina emas, balki kundalik hayotda, bayramlarda, o'yinlarda, sahnalashtirilgan o'yinlar shakllarida ishlatilsin.

Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim berish bir maqsadga, ya'ni ularning kamol topishiga ko'maklashish va o'z vaqtida maktabga tayyorlashga qaratilgandir.

Maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketish uchun og'zaki nutqni shakllantirish, o'quv malakalarini egallash, eng muhimi, bolalar nutqini eshitish, ular nutqi mazmunini tushunish, o'rtoqlarining javobini analiz (tahlil) qila olish, lozim bo'lsa, ularning javobini tuzatish va to'ldirish malakasiga ega bo'lish juda muhimdir.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarning nutq taraqqiyotiga bo'lgan talab ortib boradi. Ular o'zlarining fikrlarini tiniq, tushunarli, grammatik tomondan to'g'ri, aniq gaplar bilan bayon etishlari lozim.

Shu bilan qatorda, tayyorlov guruhida bolalarni savod o'rganishga tayyorlash ishlari olib boriladi, ular nutqdagi tovushlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadilar, 4 – 5 ta so'zdan gap tuzadilar, so'zlarni bo'laklarga bo'ladilar. Mana shu ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni bajara borarkan, Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarni atrof hayot bilan tanishtirish, ularning so'z boyliklarini

oshirish, ularda ogʻzaki nutq malakalarini shakllantirish bilan birga, axloqiy va estetik tarbiya vazifalarini ham hal qilib boradi.

Bolalarda soʻz boyligining oshishi uchun tarbiyachi ularga yangi soʻzlardan qanday foydalanish yoʻllarini oʻrgatib boradi va nutqning tovush qurilishiga ham eʼtibor beradi. Lekin, ayni paytda, tarbiyachi bola nutqini oʻstirishda aniq vazifalarni, nutqning qaysi tomonini shakllantirishi zarurligini aniq bilishi lozim. Buning uchun tarbiyalanuvchilarning nutqini takomillashtirish yuzasidan reja asosida muntazam ish olib borish talab etiladi.

Mashgʻulotni rejalashtirganda, tarbiyachi uning asosiy vazifasini aniq belgilab olishi lozim. Masalan, bolalarni narsalarni ifodalab berishga oʻrgatish vazifasi qoʻyilarkan, shu mashgʻulotda qoʻllaniladigan metod va usullar belgilanadi.

2-§. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishning nazariy-metodik asoslari

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning “2017 – 2021- yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy mafkura asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish uchun beriladigan ta’lim-tarbiya mazmuni o‘zida quyidagi uch yo‘nalishni mujassamlashtiradi: nutqi va tafakkurining rivojlanganligi, so‘z boyligi, ilk matematik tasavvurlar hamda tabiatga oid bilimlar.”¹

Nutqi va tafakkurining rivojlanganligi, so‘z boyligiga oid belgilangan talablarga erishish bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirib borish, ularga ertak va hikoyalar aytib yoki o‘qib berish, she’rlarni yod oldirish, fikriy mushohada qilishga o‘rgatish, ta’limiy o‘yinlar vositasida tafakkurni peshlash kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tevarak-atrofdagi narsalar va hayotda yuz beradigan hodisalar bola nutqi va tafakkuri mazmunining asosini tashkil qiladi.

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida quyidagi tamoyillarga ham muntazam ravishda amal qilib borish talab etiladi:

- Nutq o‘stirish mashqlarini nutq o‘stirish mashg‘ulotlaridan tashqari bir qator tadbirlar uyushtirib borish.
- Nutq o‘stirishda bolalarning hayotiy tajribalari va oilaviy tadbirlarga asoslanish.
- Nutq o‘stirish mashqlarini izchillik bilan va muayyan tizimda o‘tkazib borish.

¹ Учинчи мингйилликнинг боласи. Таянч дастури. Меъёрий хужжат. “Ma’rifat-Madadkor”, 2001, 27-бет.

- Nutq o‘stirish ishlarini bolalarning ijodiy faoliyatlari asosida tashkil qilish.
- Bolalarda nutq madaniyatini shakllantirib borish.

“Maktab yoshiga yetgan bolalarning nutq va tafakkurining rivojlanganlik darajasiga qo‘yiladigan talablar:

Nutqining rivojlanganligi va so‘z boyligiga oid:

- Tovush, so‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz etish;
- 3000 dan ortiq so‘zni tushunish va bilish;
- Rasmga qarab gap tuzish;
- Ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;
- Eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so‘zlab berish;
- Ifodali nutqqa ega bo‘lish;
- Tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so‘zlab berish;
- Turli mavzudagi, kichik hajmdagi 6 ta she’rni yoddan aytish;
- Ota-ona, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo‘yicha qisqacha hikoya tuzish;
- Kattalar va o‘rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etish;
- Kattalar va o‘rtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega bo‘lish.”¹

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari bolalar nutqini o‘stirishda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu mashg‘ulotlar Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun tavsiya qilingan nutq o‘stirish dasturi asosida olib boriladi. Maktabgacha ta’lim muassasasining tarbiya dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini grammatik tomondan to‘g‘ri o‘stirish, ona tilini har tomonlama puxta o‘zlashtirishlarining aniq vazifalarini belgilab beradi.

Har bir tilning asosini tovush sistemasi (tizimi), lug‘at boyligi va grammatik qurilishi tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasining tarbiya dasturi nutq o‘stirish bo‘yicha bolalarni ona tiliga o‘rgatish va atrofdagilar bilan aloqa qilish vositasi

¹ Учинчи мингйилликнинг боласи. Таянч дастури. Меъёрий хужжат. “Ma’rifat-Madadkor”, 2001, 32-бет.

sifatida har bir bolaning nutqini o‘stirib borishni ko‘zda tutadi. Nutq o‘stirish masalasi bolalarning fikrini o‘stirish, bilim doirasini kengaytirish, atrof hayotni bilishga intilish qobiliyatlarini o‘stirish bilan bog‘liq. Aqlan yetuklik va ruhan sog‘lomlik, ma‘nan barqarorlik bola nutqining ravon, grammatik jihatdan to‘g‘ri va aniq, leksik jihatdan boy hamda tasirli bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham dasturda bolalarni atrof hayot, tabiat bilan tanishtirish va ular nutqini o‘stirish qismlari birga qo‘shib berilgan.

Nutq o‘stirish dasturida quyidagi xususiyatlar mavjud:

Dastur bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishga asoslangan.

Dastur maktabgacha tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan bolalarni o‘z ona tilida aniq va to‘g‘ri gapirishga o‘rgatish masalasini hal qilishni ko‘zda tutadi, chunki bolalar bir-birlari va kattalar bilan har xil faoliyatda, munosabatda bo‘lganlarida tildan erkin va to‘g‘ri foydalanishlari lozim.

Maktabgacha ta‘lim muassasasida nutq o‘stirish dasturi atrof-muhitdagi kishilar, mehnat va tabiat bilan tanishtirish, narsalarni bilish imkoniyatini kengaytirish dasturi bilan qo‘shib olib boriladi.

Bolalarning bilim doirasini kengaytirmasdan turib, unga ona tilini o‘rgatib bo‘lmaydi. Shuningdek, kuzatayotgan narsa va hodisalarning nomini so‘z bilan ifoda etib borilmasa, ya‘ni bolalarga uning nomi va xususiyatlari aniq tanishtirib o‘tilmasa, uni atrof hayot bilan ham tanishtirib bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasining bolalar nutqini o‘stirish dasturi bilan boshlang‘ich maktab dasturi o‘zaro bog‘liq. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirib, ularning lug‘at boyliklarini kengaytirib boradi, so‘zlarning ma‘nosini, mohiyatini tushunishlariga yordam beradi.

Tarbiyachi bolalar tilining tovush madaniyatini takomillashtirishga alohida e‘tibor beradi, ona tilidagi tovushlarni, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishlarini shakllantiradi, shuningdek, ularning eshitish qobiliyatlarini ham

o‘stiradi. Maktabgacha ta’lim muassasasida fikrni grammatik tomondan to‘g‘ri yetkazishni tarbiyalash ustida katta ishlar olib boriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi dasturiga bolalarni maktabga tayyorlov guruhida ularni savod o‘rganishga tayyorlash vazifasi kiritilgan. Bolalar bog‘chasida bu davrni o‘tish bolalarga maktabda muvaffaqiyatli o‘qib ketish, o‘quv faoliyati malakalarini egallash uchun qulay sharoit yaratib beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida nutq o‘stirish dasturi quyidagi bo‘limlardan iborat:

- Bolalarni so‘zlashuv (dialogik) nutqiga o‘rgatish.
- Bolalarni hikoya qilib berishga o‘rgatish.
- Bolalarning nutqidagi tovush madaniyatini tarbiyalash.
- Bolalar nutqini grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirish.
- Atrof-muhit bilan tanishtirish va lug‘at boyligini kengaytirish.
- Bolalarni maktabda savod o‘rganishga tayyorlash.
- Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish.

Maktabgacha tarbiya dasturi bo‘limlari bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasalarida bajariladigan vazifalar mazmunini quyida kengroq yoritishga harakat qildik.

Bolalarni so‘zlashuv (dialogik) nutqiga o‘rgatish

So‘zlashuv nutqi og‘zaki nutqning eng oddiy shaklidir. Nutqning bu shakli tushunarsiz, mantiqan bog‘lanmagan bo‘lsa, aloqa quroli bo‘la olmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar so‘zlashuv nutqini kattalar yordamida egallaydilar. Bola birinchi bor bolalar bog‘chasiga kelganda, so‘zlamay jim yuradi, u yangi sharoitini kuzatib o‘zlashtirib boradi.

Bolalarda so‘zlashuv nutqining shakllanishida yutuqqa erishish uchun turli-tuman yo‘llardan foydalanish lozim, ya’ni bu yo‘llar kattalar bilan so‘zlashish, tarbiyachining bergan savoliga to‘g‘ri va to‘liq javob berish, atrofdagilarga savol bilan murojaat qilish, kattalar bilan so‘zlashganda o‘zini to‘g‘ri tuta olish va shu kabilarga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda soʻzlashuv nutqini bogʻchaga kelgan kunidan boshlab shakllantirish kerak. Kichik guruh tarbiyachilari bu vazifalarni hal qilish yoʻllari, usullarini yaxshi bilishlari va toʻgʻri tanlay bilishlari talab etiladi.

Bolalar bogʻchasining oʻrta guruh dasturida bolalarni suhbatda ishtirok etishga oʻrgatish vazifalari qoʻyiladi. Tarbiyachi bunda bolalar tilining grammatik qurilishiga alohida eʼtibor beradi. u bolalarni savol mazmunidan chetga chiqmay, toʻliq, qisqa javob berishga oʻrgatadi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida bolalar berilgan savollarni suhbatdoshidan soʻrab bilib olishga oʻrganadi.

Bolalarni hikoya qilib berishga oʻrgatish

Monologik nutq ogʻzaki nutqning murakkabroq shaklidir. U, asosan, maktabgacha tarbiya yoshidagi katta guruh bolalarida shakllanadi. Bolalarning monologik nutqini oʻstirish uchun ularni mustaqil hikoya qilishga oʻrgatiladi. Shuning uchun kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda hikoya qilib berish malakalari rivojlantiriladi.

Bolalar bogʻchasining oʻrta guruhida bolalarni hikoya qilib berishga oʻrgatuvchi mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Bolalar narsalar, oʻyinchoqlar, hayvonlar, oʻsimliklar, suratlarga qarab hikoya toʻqishga oʻrganadilar. Oʻrta guruh bolalarining izchil, mantiqan bogʻlangan boʻlishi kerak.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutq faoliyatida mustaqil hikoya qilish katta oʻrinni egallaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi katta guruh bolasiga nisbatan kattaroq talab qoʻyiladi. Olti yoshdagi bolaning hikoyasi mazmunan bogʻlangan, maʼlum izchillikda, grammatik tomondan toʻgʻri tuzilgan boʻlishi kerak.

Bolalar nutqida tovush madaniyatini tarbiyalash

Nutqning tovush madaniyati oʻz ichiga nutqning talaffuz tomonini toʻligʻicha oladi. bunda ona tilidagi hamma tovushlarni. Soʻzlarni aniq va tushunarli talaffuz etish, nutqdagi tovushlarning intonatsiyasi, ovoz kuchi, imo-

ishoralarga va boshqalarga e'tibor beriladi. Tovush madaniyatining asosi — nutq tovushlarini eshitish va nutq paytida nafas olish holati ohangdor nutqning kelib chiqishidagi asosiy sabab va sharoitlar hisoblanadi.

Bola nutqini shakllantirishda tarbiyachining oldida qiyin va rejali ravishda ish olib borish vazifasi turadi. Chunki bu ishni muvaffaqiyatli olib borish ko'p jihatdan bola shaxsini tarbiyalashga bog'liqdir.

Nutq madaniyati bir necha qismlarga bo'linadi:

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish bola artikulyatsiya apparatining yaxshi uyg'unlashib, moslashib ishlashiga bog'liqdir. Shuning uchun ikkinchi kichik guruhdan boshlab hamma guruhlarda artikulyatsiya gimnastikalari o'tkaziladi. Ikkinchi kichik guruhda bolalarni unli va ayrim undosh tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz etishga o'rgatiladi. O'rta va katta guruhlarda qiyin undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatiladi. Bolalar 5 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni o'zlashtirishlari lozim. Shuning uchun ham katta guruhlarda turli nutq materiallari asosida tovushlarni to'g'ri talaffuz etish mashqlari o'tkaziladi.

So'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz etish va ularning mosligi ustida ish olib borish. Bu ish "Bolalar bog'chasining tarbiya dasturi" asosida ikkinchi guruhdan boshlab olib boriladi. Katta guruh bolalarida to'g'ri, aniq talaffuzni tarbiyalash mashg'ulotlari oldiga maxsus vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalarni hal qilish uchun maxsus metod va o'rgatish usullaridan foydalaniladi.

So'zlarning adabiy talaffuzi ustida ishlash. Bolalar bog'chasida adabiy talaffuzni shakllantirish uchun lozim bo'lgan qulay sharoitni, bolalar nutqidagi xatolarni aktiv ravishda yo'qotish lozim.

Nutq tempini (sur'atini) shakllantirish. Bolalarda nutq tempini shakllantirishga bolalar bog'chasining hamma guruhlarida alohida e'tibor beriladi. Bolalar, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar tez gapirishga moyildirlar, ular gap orasida qisqa va o'rinsiz pauza qiladilar. Tarbiyachi bolalarni shoshilmasdan, jumla oxirida to'xtatib, bir me'yorda so'zlashga o'rgatib borishi lozim.

Nutqning ma'nodorligini, ta'sirchanligini tarbiyalash. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining ma'nodor, ta'sirchanligi nutqning asosiy zarur xususiyati hisoblanadi. Bolalarni juda kichikligidan boshlab so'zlarni dona-dona talaffuz etishga, so'zlarni orfoepik me'yorlar asosida talaffuz etishga o'rgatib borish kelgusida ularning yaxshi nutq egasi bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Aloqa nutqining madaniyligini tarbiyalash. Bu tushunchaga bola nutqining ohangi va aloqa nutqida kerak bo'ladigan ba'zi bir xatti-harakat malakalari kiradi. Tarbiyachi bolalarda kichik yoshidan boshlab o'rtoqlari va kattalar bilan so'zlashganda muloyimlik, xushf'lik, xushmuomalalik xususiyatlarini shakllantirib borishi lozim.

O'zgalarning nutqini eshitish va nutq jarayonida nafas olishni rivojlantirib borish. Bolada nutqni diqqat bilan tinglash, ovoz va shovqinlarni, tovushlarni idrok qilish asta-sekin rivojlanadi. Bolalarda o'zgalarning nutqini eshitish fonematik idrok qilishni ya'ni so'zlardagi tovushlarni ajrata bilish, ularning tartib va miqdorini aniqlash kabi xususiyatlarini o'stirib borish zarur. Tarbiyachining vazifasi bolalarni nutq jarayonida uzoq va to'liq nafas chiqarish, jummalarni talaffuz etishdan oldin tinch va chuqur nafas olishga o'rgatishdan iboratdir.

Bolalar nutqini grammatik tomondan to'g'ri shakllantirish

“Grammatika” termini tilshunoslikda ikki ma'noda ishlatiladi: birinchidan, u tilning grammatik qurilishini bildirsa, ikkinchidan, so'zlarning o'zgarishi va ularning gaplarga birikishi haqidagi qoidalar to'plamini o'rganuvchi fandır.

Nutq o'stirish metodikasi bolalar tomonidan tilning grammatik qurilishining nutq tajribasida o'zlashtirib olinishini ko'zda tutadi.

Maktabda bolalarning og'zaki va yozma nutqlarini grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishda grammatika va to'g'ri yozish qoidalari o'rganiladi, bolalar bog'chasida esa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning og'zaki nutqini grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishda ona tilining grammatik qurilishini o'zlashtirib borishga asoslanadi. Bolalar bog'chasiga terminlar (grammatik qoidalar va maxsus grammatik terminlar) kiritilmagan. Bolalar nutqning grammatik qurilishini asta-sekin taqlid qilish yo'li bilan o'zlashtirib oladilar. Bolalar 3 yoshda ayrim grammatik ketegoriyalardan foydalanadilar, oddiy va murakkab jummalarni ishlatadilar. Ammo kichik va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqida grammatik xatolar uchraydi. Masalan, *dadam ishda ketdi, ayam uyda kirdi, opam ruchkani yozdi* kabi. Bolalar nutqida grammatik xatolarning uchrash sabablaridan biri ular yangi so'zlarni o'zlashtirayotganlarida so'zlarni yangi grammatik shaklida hamma vaqt eslab ulgura olmasligidir. Shuning uchun bolalar bog'chasida qiyin grammatik shakllarga bag'ishlangan maxsus mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim. Maxsus mashg'ulotlar bolalarning ona tilini o'zlashtirib olishlarida va ularning umumiy nutq madaniyatining shakllanishida katta yordam beradi.

Bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish va lug'at boyligini kengaytirish

Bolalar bog'chasida lug'at ishi bolalarning ularga tanish bo'lgan yoki qiyin bo'lgan so'zlar bilan faol lug'atlarini rejali ravishda kengaytirib, boyitib borishdan iboratdir. Bolalar bog'chasining dasturi tarbiyachiga har qaysi

guruhda bolalarni tanishtirish lozim bo'lgan narsa va hodisalar, tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalari doirasini aniq belgilab beradi. Bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ularning lug'at boyligi narsalarning nomi, harakati, sifati bilan boyitiladi.

Bolalarni maktabda savod o'rgatishga tayyorlash

Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturining bolalarni maktabda savod o'rgatishga tayyorlash qismida bolaning alifbegacha bo'lgan tayyorgarlik davri kiritilgan. Ma'lumki, og'zaki nutqini aniq misollar asosida analiz va sintez qilish davomida bolalarda til haqida to'g'ri tushuncha va tasavvur shakllanadi. Bolalar gap, so'z, so'zning tarkibiy qismi bo'lgan bo'g'in, tovush haqida tushunchaga ega bo'ladilar, gapdagi so'zlarning miqdorini aniqlashga o'rganadilar.

Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Bolalar bog'chasining dasturiga bolalarni og'zaki badiiy adabiyot va ularning ayrim janrlari: she'rlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar bilan tanishtirish, ularda xalq og'zaki ijodiga muhabbat uyg'otish, she'rlarni yodlash, kitobga nisbatan to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi malakalarni tarbiyalash ham kiritilgan.

Bolalar bog'chasida nutq o'stirishga oid ish formalari (shakllari)

Bolalar nutqini o'stirishda, asosan, ikki xil ish formasidan foydalaniladi:

- Bolalarga mashg'ulotlarda ona tilini o'rgatish.
- Kundalik hayot davomida o'yin, mehnat, maishiy faoliyat va sayr vaqtlarida nutq o'stirishga rahbarlik qilish.

Ona tilini o'rgatish mashg'ulotlari

Bola tilga kira boshlagan dastlabki paytlarda u nutq tovushlarini hali mukammal ayta olmaydi. Ular ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar. Masalan, r o'rniga l yoki y (ari – ayi, dori – doli - doyi), sh o'rniga s (osh - os),

k oʻrniga t (koʻrdim - toʻydim) tovushlarini aytadilar. Endi tili chiqib kelayotgan bolalar nutqining fonetik jihatdan toʻliq boʻlmasligining sababi shuki, bunday bolalarda nutq apparati etarli suratda oʻsmagan boʻladi. Shu bilan birga, bolalar ayrim soʻzlarda oʻzi idrok qilayotgan tovushlarni hali etarli farq qila olmasligi natijasida soʻz tarkibiga kirita olmaydilar.

Bola 5-6 yoshga oʻtganida oʻz ona tilining fonetikasini egallab oladi. Lekin baʼzan tovushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlar maktab yoshidagi bolalarda ham uchraydi. Bu nuqsonlar koʻp hollarda nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligiga bogʻliqdir. Bunday hollarda nutqni toʻgʻrilamoq uchun mutaxassis shifokorga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Ayrim oilalarda oilaning katta aʼzolari bola nutqidagi fonetik nuqsonlarni tuzatish oʻrniga oʻzlari ham nuqson bilan gapirishib goʻyo bolani erkalatgan boʻladilar, buning natijasida bolalardagi bu nuqsonlar uzoq vaqtgacha, baʼzan esa butun umrga saqlanib qoladi.

Bolalarning tili chiqqanidan boshlab, ularning oʻz nutqlarida foydalanayotgan soʻzlar miqdori tez koʻpaya boshlaydi. Ayni bir xil yoshdagi bolalarning soʻz boyligi turlicha boʻladi. Bolalarning yoshi boʻyicha soʻz boyligi quyidagicha boʻladi: 2 yashar bolaning soʻz boyligi 250 – 400 ta, 3 yashar bolaning soʻz boyligi 800 – 1000 ta, 4 yashar bolaning soʻz boyligi 1900 – 2000 ta, 5 yashar bolaning soʻz boyligi 2500 – 3000 ta, 6 yashar bolaning soʻz boyligi esa 3000 – 3500 ta soʻzni tashkil qiladi.

Bola yetti yoshga etganida ogʻzaki nutqning grammatikasini amaliy yoʻl bilan egallab oladi, deyish mumkin. Bolaning nutqni ana shunday egallab olishi keyinchalik savod chiqarish va tilning grammatikasini oʻrganishga imkon beradi.

Bogʻcha bolalariga ona tili oʻrgatish pedagogik jarayon boʻlib, bola tarbiyachi rahbarligida atrof hayot haqidagi bilimni kengaytiradi, lugʻat boyligini oshiradi. Bu jarayonda bolalarda aqliy faoliyatga uyushish qobiliyatlari tarbiyalanadi.

Bolalarga ona tili o'rgatish mashg'ulotlari rejali, sistemali (tizimli) ravishda o'tkazilishi lozim. Ona tili o'rgatish mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, har bir bola unda faol ishtirok etsin, berilgan vazifani to'liq o'zlashtirsin.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarining bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bor: bu mashg'ulotda bolalar ko'proq aqliy faoliyat bilan band bo'ladilar – o'ylaydilar, mushohada qiladilar, eshitadilar, tahlil qiladilar va gapiradilar.

Bog'chada ona tili o'rgatish mashg'ulotlarida kombinatsiyalashtirilgan metodlardan foydalaniladi. Bu metodda faoliyat turlari tez-tez o'zgarib turadi, shuning uchun u maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar guruhiga muvofiqdir.

Bolalarga ona tili o'rgatish boshqa mashg'ulotlar davomida ham olib borilishi zarur.

Kundalik hayot davomida nutq o'stirishga rahbarlik qilish

Kundalik hayot davomida nutq o'stirishga rahbarlik qilish bolaning tili chiqmasidan, ya'ni ular boshqalar nutqiga nisbatan endigina e'tibor qaratayotgan davrdan boshlanishi zarur. Endigina tilga kirgan bolalarning nutqi o'ziga xos xususiyatlardan iborat bo'ladi.

Tilga kira boshlagan bola o'z nutqida dastlab bosh kelishikda keladigan bir necha otlarni, buyruq shaklidagi fe'llardan ishlatadi. Bolalarning dastlabki gaplari faqat bir so'zdan iborat bo'ladi. SHu bilan birga, bolaning aytgan bitta so'zi – gapi bir necha ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, bola *sut* desa, bu so'z zamirida “Sut ber”, “Ana sut”, “Sut ichaman” kabi ma'nolar bo'lishi mumkin. Bolalarning tili chiqishining mana shu dastlabki bosqichida ba'zan ularning gapi bir necha so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Lekin bu so'zlar biriktiruvchi vositalar yordami bilan yoki shu so'zlarning shaklini o'zgartirish yo'li bilan bog'lanmagan bo'ladi. Masalan, bola boshini ko'rsatib, *bosh*, *qalpoq* so'zlarini aytsa, “*Boshimga qalpog'imni kiydirib qo'ying*” degan fikrni uqish mumkin. Bola uch yoshga qadam qo'yganda ona tilining grammatik tuzilishini

bilib oladi. Chunonchi, ayrim kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida ishlata oladilar, ayniqsa, buyruq shaklidagi fe'llarni tez va barvaqt o'zlashtirib oladilar.

Bu yoshda bolalar o'zlari shaxsan ko'rmagan voqelik to'g'risida ham gapira boshlaydilar. Bu xildagi nutq esa tasavvurlarga asoslanib fikr qilishning ifodasidir. Ikki yoshdan boshlab bolalar o'zlaricha so'z yasay boshlaydilar. Masalan, non so'zini "nanna", osh so'zini "oshsha", suv so'zini "umma", sut so'zini "lalla", mashina so'zini "di-dit" tarzida ishlatadilar. Bolalar maktabgacha tarbiya yoshida sodda gap va murakkab qo'shma gap sintaksisini ham egallay boshlaydilar. Bolalarda nutq o'sishining ana shu bosqichida hodisalarning sabablari va bir-biriga bog'lanishi to'g'risida turli savollar tug'ilaveradi. SHu yoshdagi bolalar kattalardan muttasil: "Nega?", "Nimaga?", "Nima uchun?" deb so'rayveradilar.

Nutq o'stirishning muvaffaqiyati mashq qilishga, nutq tajribasiga bog'liqdir. Mashg'ulotda hamma vaqt har bir bolaning nutqini o'stirish uchun sharoit yaratib bo'lmaydi, chunki mashg'ulot davomida bola tarbiyachining va o'rtog'ining nutqini tinglaydi, xolos. O'yin, mehnat, maishiy hayot faoliyatlarini tashkil qilish orqali tarbiyachi bolalarning nutq aktivligini, nutq faolligini o'stirib borishi, har bir bola bilan suhbatlashishi lozim bo'lgan so'zni aytib berishi, bola nutqidagi xatoni tuzatishi shart. Bola tarbiyachi bilan erkin gaplasha olishi, buning uchun unga ishonishi va uni sevishi lozim.

II bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini o'qstirishda didaktik o'yinlardan foydalanish usullari

Mazkur bob ham 2 paragraf hamda 3 ta punktdan iborat bo'lib, ushbu bobda quyidagi masalalar xususida fikr yuritiladi:

1-§. Maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik o'yinlardan foydalanish darajasi tahlili

1-§. 1. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o'qstirishda didaktik o'yinlardan foydalanish usullari

1-§. 2. O'rta guruh bolalarining nutqini o'qstirishda didaktik o'yin turlaridan foydalanish usullari

1-§. 3. Katta guruh bolalarining nutqini o'qstirishda didaktik o'yinlardan foydalanish

2-§. Nutq o'qstirishda ishlatiladigan didaktik o'yinlar turlari, o'tkazilish usullari va tajribalar tahlili

1-§. Maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik o'yinlardan foydalanish darajasi tahlili

Ta'limning o'yin shakli bolalarning ilk yoshi davridanoq asosiy shakl sifatida e'tirof etiladi. Didaktik o'yin va mashg'ulotlar kundalik rejim uchun ajratilgan maxsus vaqtlarda tashkiliy ravishda o'tkaziladi.

Didaktik o'yinlar va mashg'ulotlar "Bolalar bog'chasida tarbiya dasturi" asosida rejalashtiriladi. Tarbiyachi bu o'yinlarni o'tkazish jarayonida qanday vazifalar hal qilinishi kerakligini aniq tasavvur qilgandagina yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

Didaktik o'yin va mashg'ulotlar kichkintoylarni aqliy jihatdan o'stirish uchun juda muhim. Mashg'ulotlar vaqtida bolada aqliy jihatdan o'sish uchun kerakli bo'lgan muhim sifatlar hosil bo'ladi. Bolalarda sekin-asta kattalar ko'rsatayotgan yoki gapirayotgan narsaga o'z diqqatini jalb qilish qobiliyati tarbiyalanadi. Kichkintoylardagi taqlid qilish qobiliyati va ishtiyoqiga tayanib, tarbiyachi ularda ko'rsatilgan harakatlarni, aytilgan so'zlarni amalda bajarish istagini uyg'otadi.

Agar tarbiyachi quyidagi talablarni bajarsa, didaktik o'yinlar va mashg'ulotlar bolalar nutqini o'stirishda yaxshi natijalar beradi:

- Didaktik o'yin va mashg'ulotlarni reja asosida o'tkazish.
- Mashg'ulotlarni takrorlash.
- Mashg'ulotlarni ta'sirchan qilib o'tkazish
- Ko'rsatmalilik usulidan so'z bilan bog'lab foydalanish
- Mashg'ulotni to'g'ri tashkil etish

Didaktik o‘yin va mashg‘ulotlarni reja asosida o‘tkazish

Pedagog yoki tarbiyachi dastur vazifalari asosida “oddiydan murakkabga” izchilligiga rioya qilgan holda, materialni mashg‘ulotlar bo‘yicha taqsimlaydi. Masalan, bolalar dastlabki mashg‘ulotlarda buyum bilan tanishish vaqtida buyumning nomini aytmaydilar, balki uni ko‘rsatadilar, tarbiyachining iltimosi bilan uni olib keladilar. So‘ngra tarbiyachi uning nomini to‘g‘ri aytishni va uni o‘ynashni talab etadi.

Mashg‘ulotlarni takrorlash. Bolalar mashg‘ulotlarda olayotgan bilim va ko‘nikmalari mustahkam bo‘lishi uchun bir xil o‘yinlar hamda mashg‘ulotlarning o‘zini bir necha marta takrorlash lozim. Amaliyotda mashg‘ulotlar 2 martadan 4 martagacha, ba’zilar esa 5 – 7 martagacha takrorlanadi. Takrorlash bir dastur mazmunining o‘zida turli variantlar, ya’ni ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

Takrorlashdan so‘ng ham qiynalayotgan bolalar bilan individual tarzda ishlash zarur.

Mashg‘ulotlarni ta’sirchan qilib o‘tkazish

Bolalarda mashg‘ulotlarga qiziqishni kuchaytirish uchun, ularning hamma narsani xohish va qoniqish bilan bajarishlari uchun hamma o‘yinchoqlar, qo‘llanmalar tashqi ko‘rinishi bilan o‘ziga tortib turishi; suratlar rangli qog‘ozlar bilan, qo‘g‘irchoqlar bilan yasantirilgan, o‘yinchoqlar sinmagan, sharlar toza, yaxshi bo‘yalgan bo‘lishi kerak. O‘yinchoqlarni harakatda ko‘rsatish – kuchukcha yuguradi, vovullaydi; mashina yuradi, signal beradi, yuk tashiydi; g‘ishtchalardan uylar, imoratlar quriladi, “Lego” kubiklaridan esa robotlar yasaladi va hokazo. Bunda tarbiyachining emotsional, ya’ni his-tuyg‘ularga boy ta’sirchan nutqi katta rol o‘ynaydi.

Ko‘rsatmalilik usulidan so‘z bilan bog‘lab foydalanish

Bolalarga ko‘rsatiladigan hamma narsa so‘z va tushuntirish bilan mustahkamlanishi lozim. Masalan, “Dazmolni olib ko‘ylakni dazmollayman” mashg‘uloti. Tarbiyachining so‘zi bolalarda mashg‘ulotga qiziqishni

kuchaytiradi, ularga taqlid qilish uchun namuna bo'lib, o'z nutqini o'stirish imkonini beradi.

Hamma didaktik o'yinlar va mashg'ulotlar bolalar faoliyatining mavjudligi bilan tavsiflanishi, belgilanishi lozim. Bolalik yoshiga xos narsa harakatlanishga bo'lgan ehtiyojdir. Shuning uchun o'yin va mashg'ulotlar ularning bu ehtiyojlarini qondiradigan qilib tashkil etiladi. Shuning uchun qisqa tushuntirish va ko'rsatishdan so'ng bolalarga harakatlanish imkoniyati beriladi. Masalan, bolalar bilan qafasdagi qushchani kuzatib turib, keyin tarbiyachi qushchanning qanday uchishini, yugurishini ko'rsatishni taklif etadi, ya'ni bolalarga harakat qilishga imkon beradi.

Mashg'ulotlarning qancha davom etishi bolalar faolligining xarakteriga va bolalarning emotsional holatiga bog'liqdir. Agar mashg'ulot davomida bolalar harakatlana olsalar, bolalar mashg'ulotni charchamasdan 10 – 12 minut davom ettirishlari mumkin. O'yinchoqlar va suratlarni ko'rsatib she'r o'qish bolalardan nisbatan harakatlanishni talab etadi. Shuning uchun matn tinglash bir necha minutgina davom etadi (6 – 8 minut). Keyin bolalar faoliyatining xarakteri o'zgaradi: ular o'yinchoqlar o'ynaydilar, o'yin harakatlarini takrorlaydilar.

Mashg'ulotni to'g'ri tashkil etish

Mashg'ulotlar va o'yinlar o'tkazish uchun kundalik rejimda maxsus o'rin ajratilgan: ular nonushtadan keyin ertalabki soatlarda, sayr vaqtida kunduzgi uyqudan keyin, bolalar ovqatlanib bo'lgach o'tkaziladi. Kunduzi ikki marta uxlaydigan bolalar ikkinchi bedorlik vaqtlarida mashg'ulot va o'yinlar bilan shug'ullanadilar.

1-§. 1. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish usullari

Ilk yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta. 1 yoshdan 1 yasharu 6 oylikkacha bo‘lgan bolalarda birgalikda mashg‘ulotga qatnashish malakalari taraqqiy etmagan bo‘ladi. SHuning uchun bola 1 yoshga to‘lgandan keyin u bilan, asosan, individual mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Butun guruhni jamoaviy mashg‘ulotlarda birlashtirish yaramaydi.

Bolalar ikki, ikki yarim yashar bo‘lganlarida bir-birlaridan ancha farq qiladilar, ularning taraqqiyot darajalari, bilimlari, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish qobiliyatlari ham har xil bo‘ladi.

Bolalar guruhlarga, avvalo, yoshlariga qarab ajratiladi: 1 yasharu 3 oylikkacha bo‘lgan bolalar 1-guruhga; 1 yasharu 3 oylikdan 1 yasharu 6 oylikkacha bo‘lgan bolalar boshqa guruhga; so‘ngra 1 yasharu 6 oylikdan 2 yasharu 6 oylikkacha bo‘lgan bolalar uchinchi bir guruhga birlashtiriladi. Guruhlash paytida bolalarning sog‘ligi, oiladagi turmush sharoiti, taraqqiyot darajasi kabilar hisobga olinadi. Nutqni o‘stiruvchi ba’zi mashg‘ulotlarda yoshlari turlicha va taraqqiyot darajalari har xil bo‘lgan bolalarni birlashtirib mashg‘ulotlar o‘tkazish foydalidir.

Bolalar bog‘chasining tarbiya dasturida nutqni o‘stirishga doir mashg‘ulotlar va o‘yinlarning ro‘yxati berilgan. Bunday mashg‘ulotlarda o‘yinchoqlar, suratlar, tevarak-atrofdagi buyumlar dunyosi va jonli ob’yektlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Tarbiyachining qanday maqsadlar qo‘yishiga qarab, har xil mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. O‘yinchoqlarni ko‘rsatib, ularning nomini aytish, buyumlarni harakatda ko‘rsatish, syujetli rasmlar ko‘rsatish kabi topshiriqlarni bajarish, buyumlarni qidirish kabi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Tomosha tipidagi mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega. Bu mashg‘ulotlarda ko‘zlanadigan maqsad bolalarda biror buyumga, voqeaga, hodisaga qiziqishni kuchaytirish, nutqni faollashtirishdir.

Ilk yoshdagi birinchi guruhda bolalar nutqini o‘stirish va ularni tevarakatrof bilan tanishtirish uchun quyidagi o‘yin va mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin: “Buyumlarni tanish va qidirib topish”.

“Qo‘g‘irchoq o‘ynash” o‘yinini quyidagicha tashkil qilinishi mumkin:

Qo‘g‘irchoq Lolani stulchaga o‘tkazadilar. Tarbiyachi uni bolalar bilan ularning ismlarini aytib tanishtiradi. Keyin qo‘g‘irchoqni har bir bolaning oldiga yaqinlashtirib, Lolaning ko‘zi, burni, qo‘li, oyog‘i qayerdaligini ko‘rsatishni taklif etadi. Bu mashg‘ulotda bolalar ayrim so‘zlarni tushunib olishni o‘rganadilar.

Yilning boshida birinchi kichkina guruhda bolalar tarbiyachining savoliga xor bilan javob bera oladilar.

Lekin sekin-asta ular mashg‘ulotlardagi intizom qoidalarini egallab, bittadan va o‘rinlaridan turib javob berishga o‘rganadilar. Savollarga javob berishda bolalar ko‘pincha qiynaladilar. Tarbiyachi o‘z vaqtida bolalarga yordam berishi, ya‘ni aytib turishi yoki birga javob berishi lozim. Jumlani tarbiyachi boshlaydi, bola esa tugatadi. Lekin yil oxirida bolalar tarbiyachining murakkab bo‘lmagan savollariga mustaqil javob berishlari lozim.

Ikkinchi kichik guruhda monolog tarzida gapirishning boshlang‘ich shaklini o‘stirishda ertak va hikoyalardagi qahramonlar rollarini o‘ynash asosidagi kichkina didaktik o‘yin mashg‘ulotlaridan keng foydalanish mumkin. Masalan, “Echki bolalari va bo‘ri”, “Tulki va g‘ozlar” ertaklari.

Kichkina guruh bolalarining nutqini o‘stirishda tarbiyachining savollari hamda didaktik o‘yinlar muhim o‘rin tutadi.

1-§. 2. O'rta guruh bolalarining nutqini o'stirishda didaktik o'yin turlaridan foydalanish usullari

O'rta guruh bolalarining nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarning bir muncha murakkabroq turlaridan foydalanish mumkin. Chunki bu guruh bolalari faqat yaxshi tanish ertak, hikoyalarni qayta hikoya qilibgina qolmay, balki mashg'ulotda birinchi marta o'qib berilgan matnlarni qayta hikoya qilishga o'rganishlari, shu asosda mazmuni esda yaxshi saqlanib qolgan hikoyalar asosida didaktik o'yinlarda o'zlari bemalol ishtirok etishlari mumkin.

Didaktik mashg'ulotlarni o'tkazishda turli o'yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi umumiy ko'rgazmali materialdan 6 – 8 ta yirik o'yinchoqdan foydalanish mumkin. Bunda tarbiyachi qo'g'irchoqlar bilan didaktik o'yinlar tashkil qilib, qo'g'irchoq bilan instsenirovkani ijro etadi. O'yin vaqtida u qo'g'irchoq nomidan gapiradi, bolalarga savollar beradi, javob beradi, aytib turadi, so'zlarni takrorlashni so'raydi va hokazo. Bolalar qo'g'irchoqqa jon-dili bilan xor bo'lib yoki bitta-bitta javob beradilar. Agar ular mashg'ulotlarda javob berishga uyalsalar ham, o'yin sharoitida ular so'zlashishda xursandchilik bilan qatnashadilar. Qo'g'irchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar: “ Qo'g'irchoqni cho'miltirish”, “Qo'g'irchoqni choy, ovqat bilan mehmon qilish, uxlatish, sayrga otlantirish”, “Qo'g'irchoqning tug'ilgan kunini nishonlash” va shu kabilar juda ko'p ishlangan.

Yuqorida sanab o'tilgan o'yinlarning hammasida bolalar faqat qarab o'tirmasdan, suhbatlashish jarayonida ishtirok etishlari muhimdir. Tarbiyachi bolalarning so'z boyligini oshirishning, nutqiy faollashtirishning turli usullarini qo'llaydi. Masalan, tarbiyachi: “Bizning qo'g'irchoqimiz Guli anchadan beri uxlayapti, endi u uyqudan turishi kerak. Kelinglar, hammamiz birgalikda qo'g'irchoqni uyqudan uyg'otamiz, - deydi, - qo'g'irchoq Guli, turish vaqti bo'ldi”. Bolalar bu so'zlarni takrorlaydilar va hokazo. O'yin vaqtida bolalar gapirishlari, harakat qilishlari, qo'g'irchoqni ushlab turishlari, kiyimlarini olib

berishlari, kiyintirishlari, ovqatlantirishlari, uxlashga yotqizishlari kerak bo‘ladi. Mashg‘ulotning bunday shakli bolalarda muomala malakasining o‘lishiga yordam beradi, bolalarda aniq, ravshan, tushunarli so‘zlash malakasini tarkib toptiradi.

1-§. 3. Katta guruh bolalarining nutqini o‘stirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish

Katta guruhda didaktik o‘yin mashg‘ulotlaridan, asosan, hikoya qilishni o‘rgatish davrida keng foydalaniladi. Chunki hikoya qilish, u bolaning ko‘rgan yoki eshitgan voqeasi bo‘lishidan qat’i nazar, bolalarning o‘sha voqea detallarini qanchalik eslab qolgani, nutq jarayonida ularni qanchalik tasvirlab bera olishi va to‘g‘ri jumla tuza olishi bilan xarakterlanadi.

“Katta guruh bolalarida predmetlar, kiyimlar, mebellar, idishlar, o‘yinchoqlar, o‘simliklarni tasvirlash malakasini tarkib toptirish ishi davom ettiriladi. Lekin bu ish murakkablashadi – ko‘rgazmali materiallarni tasvirlovchi didaktik o‘yinlar kiritiladi. Bular – “Ajoyib xaltacha”, “Qani, topchi, bu nima?”, “Do‘konda”, “O‘yinchoqlar do‘konida” va boshqalardir”.¹

Tasvirlovchi didaktik o‘yin, odatda, o‘quv yilining boshida emas, balki hikoya qilish bo‘yicha bir nechta mashg‘ulotdan keyin o‘tkaziladi. Chunki bolalarda predmetni tasvirlash malakasi bo‘lmasa, ular didaktik o‘yinda qatnasha olmaydi. Masalan, bola “O‘yinchoqlar do‘konida” degan o‘yinda qatnashar ekan, “sotuvchi”ga murojaat qilib, “Iltimos, menga bitta o‘yinchoq bersangiz, bu o‘yinchoq katta, dumaloq, rezinkadan qilingan. O‘yinchoqning bir tomoni ko‘k, bir tomoni qizil. Bu o‘yinchoq bilan futbol yoki voleybol o‘ynash mumkin. Bu o‘yinchoq ikkinchi tokchada, o‘rtada tuuribdi”, - deydi.

Dastlabki paytlarda tarbiyachi yangi o‘yinni tushuntirganda, hikoya namunasi va rejasini berish usulidan foydalanish mumkin. O‘zining namunasida tarbiyachi “sotuvchi” ga qanday muloyim murojaat qilishni, qanday minnatdorchilik bildirish lozimligini ko‘rsatadi.

Biz yuqorida bolalar bog‘chalarining turli yosh guruhlari uchun tavsiya etilgan didaktik o‘yin mashg‘ulotlarning qisqacha tafsilotini berib o‘tdik. Nutq o‘stirish bilan bog‘liq bo‘lgan bu mashg‘ulotlarning qay tarzda o‘tkazilishi, buning natijasida bolalarning nutqi qay darajada o‘sib borayotganligini,

¹ Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T., “O‘qituvchi”, 1995, 73-bet.

mashgʻulotlarga bolalarning qiziqishini aniqlash maqsadida Andijon shahridagi 40 – davlat maxsus maktabgacha taʼlim muassasasi – bolalar bogʻchasining katta guruhida savol-javob va suhbat olib borildi. Bolalarning javoblari diktofonga yozilib, tahlil qilindi. Buning uchun bolalarni ogohlantirmasdan “Mehmon kutish” mavzusida suhbat oʻtkazildi, savol-javoblar qilindi. Tarbiyachi avval mavzu boʻyicha qisqacha tushuntirish olib bordi. Keyin bolalarning hikoyalari tinglandi. Bunda bolalarning muomala munosabati, soʻz boyligi, oʻzlarini mehmonlar oldida qanday tutishi, mehmon bilan suhbat jarayonida qanday soʻzlardan foydalanish, gaplarni qanday tuzish kerakligiga ahamiyat berish lozim edi.

- Guruhdagi 15 ta boladan 6 nafari qisman toʻliq javob berishgani maʼlum boʻldi. Boshqa bolalar esa kuzatuvchilar tomonidan savollar berilganda, “ha”, “yoʻq” kabi javoblardan nariga oʻtolmadilar. Nutq oʻstirish bilan bogʻliq adabiyotlarda bolalar nutqini oʻstirish uchun qoʻllash mumkin boʻlgan usullar bayon etilganiga qaramay, mashgʻulotlarda tarbiyachilar ulardan unumli foydalanmaganlar. Natijada, bolalarning ogʻzaki nutqlarida quyidagi kamchiliklar koʻrindi:
- Bolalarning soʻz boyligi yetarli emas.
- Soʻz birikmalari va gap tuzish talab darajasida emas.
- Ogʻzaki nutqda izchillik yoʻq, soʻzlash davomida muayyan rejaga amal qilinmaydi.

O g' z a k i n u t q k o' r i n i s h i	Katta guruhda	
	B o l a l a r soni	F o i z hisobida
To'la javob berganlar	0	0
Qisman to'la javob berganlar	6	40 %
Fikrlarni pala-partish, o'rinlarini almashtirib aytganlar	3	20 %
Ayrim fikrlarnigina aytganlar	4	26,6 %
Savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob berganlar	2	13,3 %

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ayrim bolalarning javoblari maktabgacha tarbiya dasturi talablariga javob bermaydi.

Xuddi shu kabi holatlarni boshqa guruhlarda ham ko'rish mumkin.

Biz yuqoridagi mavzu bo'yicha Andijon shahridagi 40 – davlat maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi – bolalar bog'chasining Dildora Solijonova rahbarlik qilayotgan katta guruhida ham tajribalar o'tkazdik. Bolalarga hech qanday didaktik mashg'ulot o'tkazilmadi, bolalarning og'zaki nutqi biz kutgandek ijobiy natijalarga ega bo'lmadi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, didaktik o'yin mashg'ulotlari muntazam o'tkazilmagan hollarda bolalar og'zaki nutqining ravon bo'lmasligi ma'lum bo'ldi.

2-§. Nutq o‘stirish jarayonida ishlatiladigan didaktik o‘yinlar turlari, o‘tkazilish usullari va tajribalar tahlili

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bola nutqining o‘shiga jiddiy e’tibor berish talab etiladi. Chunki bolaning aqliy kamolot darajasi, tafakkurining o‘shishi uning nutqida o‘z ifodasini topadi. Respublika ta’lim markazining “Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash dasturini amaliyotga tadbqiq etishga yo‘naltirilgan qo‘llanma”sida nutq o‘stirish mashg‘ulotlari turli yosh guruhlar uchun quyidagicha taqsimlangan:

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash dasturini hayotga tadbqiq etish bo‘yicha turli bosqichdagi guruhlar uchun haftalik mashg‘ulotlar (nutq o‘stirish bo‘yicha):¹

T.r.	Ta’limiy mashg‘ulotlar	Ilk yosh guruhi	Kichik guruh (3 yosh)	O‘rta guruh (4 yosh)	Katta guruh (5 yosh)	Maktabga tayyorlov guruhi	
						5-6 yosh	6-7 yosh
1.	Bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirish: Nutq o‘stirish.	1	1	1	1	2	2

Qo‘llanmada nutq o‘stirish, bolalarni tevarak-atrof bilan, tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyot olami bilan oshno qilish bo‘yicha choraklarga bo‘lingan mashg‘ulotlar rejasi ilova qilingan. Mashg‘ulotlar bolalar og‘zaki nutqini o‘stirish va shakllantirish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Lekin bunday imkoniyatlar bo‘lishiga qaramay, og‘zaki nutq o‘stirishga oid turli usullar, mashqlarning mukammal ishlanmaganligi va qo‘llanmasligi natijasida Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining nutqiy malakalarini talab darajasida deb bo‘lmaydi.

¹ Yuqoridagi qo‘llanma. T., 1999.

Biz bog'cha tarbiyachilarining nutq o'stirish mashg'ulotlarida qo'llagan usullari, turli mavzudagi tadbirlari, uslubiy ishlanmalari, shuningdek, metodik qo'llanmalarida bayon etilgan bir qator tavsiyalarini o'rgangan holda, ularni amaliyotda sinab, tajribadan o'tkazdik. Bolalarda nutq o'stirishga doir quyidagicha mashqlar tizimini didaktik o'yinlar vositasida qo'lladik:

- Hikoya (matn) mazmunini qayta so'zlab berish.
- Matn (ertak)ni rollarga bo'lib so'zlatish.
- Matn (ertak)ni rollarga bo'lib ijro etish.
- Savol-javob o'yinlarini tashkil etish.
- Gullar va o'simliklar nomlari asosida askiya (so'z o'yini) tashkil etish.

Hikoya (matn) mazmunini qayta so'zlab berish

Hikoya (matn) mazmunini qayta so'zlab berish mashqi an'anaviy usullardan biri hisoblanadi. Ammo bu mashqni tashkil qilish tamoyillariga turlicha yondashish mumkin. Bu mashqni o'tkazishda biz didaktik usullardan biri bo'lgan musobaqa usulidan foydalandik. Chunki bu usul bolani ehtiyotkorlikka, tezkorlikka o'rgatadi. Bolalar matn mazmunini qayta so'zlayotganlarida, ularning nutqidagi kamchiliklarni o'zaro kuzatib belgilab borishlari topshirildi. Bunday kuzatish belgilanganligi uchun so'zlayotgan bola iloji boricha to'g'ri so'zlashga, xato qilmaslikka, nutqiy kamchiliklarga (duduqlanish, yo'talish, to'xtab qolish, burnini qayta-qayta tortish, bilmay qolib atrofga alanglab qarash, yig'lab yuborish, qo'pol so'zlarni aytish, noto'g'ri jumla tuzish kabilar) yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Bu usulni qo'llashda "Uy hayvonlari" matnidan foydalandik.

Namuna aytilgandan keyin, shunday shaklda gapirish topshirilganda, dastlab 2 – 3 bola biroz qiynaldi. So'ngra qolgan bolalar namunadagidek so'zlay oldilar. Bu didaktik mashg'ulot bola nutqining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi desak, xato bo'lmaydi. Chunki musobaqa usuli bolalarni doimo hushyorlikka chaqirib turdi.

Matn (ertak) ni rollarga bo‘lib so‘zlatish

Matn (ertak)ni rollarga bo‘lib so‘zlab berish mashqi bolalarning og‘zaki nutqiga ijobiy ta’sir etadi. Chunki bunda bola o‘z roliga tegishli gaplarni ongli, ifodali qilib so‘zlaydi, boshqalarning rolini kuzatib boradi.

Bunday mashq usulini qo‘llashda ham muayyan tamoyillarga rioya etishni ta’minladik. Ular, asosan, quyidagilardir:

- Matn (ertak)ni rollarga to‘g‘ri ajratish.
- Qatnashuvchilar (ertak qahramonlari) so‘zini ifodali, dona-dona, tushunarli qilib so‘zlash.
- So‘zlash davomida uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik.

Katta guruhda Sharl Perroning “Qizil shapkacha” ertagini rollarga bo‘lib so‘zlab berish bo‘yicha tajriba o‘tkazdik. Bolalar matnni ifodali qilib so‘zlab berishdi.

(Ertak matni ilova qilinadi.)

Qizil shapkacha

Ertak

(Sharl Perro)

Bor ekan, yo‘q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan. U dunyoda tengi yo‘q, yoqimtoy ekan.buvisi unga tug‘ilgan kuni sharafiga bitta qizil shapkacha sovg‘a qilibdi. Qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Qo‘ni-qo‘shnilar uni ko‘rganda, — Ana, Qizil Shapkacha kelyapti! — der ekanlar.

Bir kuni oyisi somsa pishirib, qiziga:

— Oppoq qizim, Qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog‘ni buvingga olib borib bergin, eson-omonligini bilib kelgin, — debdi.

Qizil Shapkacha kiyinib, buvisini ko‘rgani narigi qishloqqa ketibdi.

U o‘rmondan chiroyli gullar terib, sekin-asta ketayotsa, oldindan och Bo‘ri chiqib qolibdi.

— Hoy Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan?, — debdi Bo‘ri.

— Buvimni koʻrgani ketyapman, buvinga mana bu somsalar bilan kuvachada yogʻ olib ketyapman.

— Buvingning uyi uzoqmi?

— Ha, uzoqda, — deb javob beribdi Qizil Shapkacha. — Huv, anavi tegirmon orqasidagi qishloqda. Eng chekkadagi uyni koʻryapsanmi, oʻsha.

— Yaxshi, — debdi Boʻri, — men ham buvingni koʻrib kelaman. Men manavi yoʻldan boraman, sen anavi yoʻldan bor. Koʻramiz, kim oldin borarkin?

Boʻri shunday deb eng yaqin yoʻldan gʻizillab chopib ketibdi. Qizil Shapkacha boʻlsa, eng uzoq yoʻldan yurib ketibdi. U yoʻlma-yoʻl toʻxtab, gullar teribdi, guldasta yasabdi.

— Taq-taq!

— Kim? — deb soʻrabdi kampir.

— Men nevarangiz Qizil Shapkachaman, — deb javob beribdi Boʻri ovozi ingichka qilib. — Siznikiga mehmon boʻlib keldim, somsa bilan kuvachada yogʻ keltirdim.

Kampir bu vaqtda toʻshakda kasal boʻlib yotgan ekan. U chindan ham Qizil Shapkacha kelibdi deb oʻylabdi:

— Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi! — debdi.

Boʻri ipni tortibdi, eshik ochilibdi. Boʻri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Keyin eshikni yopib, kampirning oʻrniga yotib, burkanib olibdi-da, Qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda Qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi.

— Taq-taq!

Qizil Shapkacha uyga kirib, karavot yoniga kelibdi-da:

— Voy buvijon, qoʻllaringiz muncha uzun? — deb soʻrabdi.

— Seni mahkam quchoqlash uchun, bolaginam, — debdi Boʻri.

— Buvijon, quloqlaringiz muncha katta? — debdi Qizil Shapkacha.

— Gaplaringni yaxshiroq eshitish uchun, jonginam, — debdi Boʻri.

— Buvijon, koʻzlaringiz muncha katta?

— Seni yaxshiroq ko‘rish uchun, jon bolam.

— Buvijon, tishlaringiz muncha katta?

— Seni tezroq yeb qo‘yish uchun, jonginam! — deb och Bo‘ri Qizil Shapkachaga tashlanibdi-da, uni boshmog‘i va qizil shapkachasi bilan birga yutib yuboribdi. Qizil Shapkacha dod deyishga ham ulgurmay qolibdi.

Shu vaqt, uning baxtiga, uy yonidan o‘tinchilar o‘tib borayotgan ekanlar. Yelkalarida boltalari ham bor ekan.

Ular Bo‘rining ovozini eshitib, uyga chopib kiribdilar va Bo‘rini o‘ldiribdilar. Keyin uning qornini yorsalar, ichidan Qizil Shapkacha bilan buvisi chiqibdi. Ikkovlari ham sog‘-salomat ekanlar.¹

Ertak 3 qismga ajratilib, har bir qismda ishtirok etuvchilar o‘zgartirib turildi. Rollarga bo‘lishda bolalarning ovoz kuchi hisobga olindi, obrazli qilib so‘zlashlariga e‘tibor berildi. Bu usul bolalarning yodlash qobiliyatlarini o‘stiradi, badiiy adabiyotga qiziqishini oshiradi.

Matn (ertak)ni rollarga bo‘lib ijro etish

Bu usulni qo‘llashda “Mehmon kutish” matnidan foydalanishni lozim topdik. Biz yuqorida aynan mana shu mavzu asosida bolalarning og‘zaki nutqini tahlil qilganligimizni, natijalar biz kutgandek bo‘lmaganligini ham aytib o‘tgan edik. Endi esa bu mavzuni bolalarga yaxshilab tushuntirdik, ularga rollarni bo‘lib berdik, sahnalashtirilgan ko‘rinish asosida o‘yin mashg‘ulotini o‘tkazdik. Mashg‘ulotni o‘tkazish davomida bolalarning nafaqat og‘zaki nutqi, muomala odobi, balki ularning uylarni qanday jihozlashlari, mehmonlar oldida o‘zlarini qanday tutishlari, mehmonga qanday dasturxon tuzashlari, hatto choy uzatishlarigacha e‘tibor berildi.

Yuqorida 15 ta bolaning og‘zaki nutqi natijalarini bergan edik. Yana aynan mana shu bolalar bilan suhbat o‘tkazganimizda, “Mehmon kutish” didaktik o‘yin mashg‘ulotlaridan so‘ng bolalar nutqidagi quyidagicha o‘sish darajasini ko‘rdik.

¹ Durdona. Bog‘chalar uchun badiiy adabiyotlar xrestomatiyasi. To‘plam. T., “Cho‘lpon”, 1995. 107-bet.

Ogʻzaki nutq koʻrinishi	Katta guruhda	
	B o l a l a r soni	F o i z hisobida
Toʻla javob berganlar	7	46,6 %
Qisman toʻla javob berganlar	5	33,3 %
Fikrlarni pala-partish, oʻrinlarini almashtirib aytganlar	2	13,3 %
Ayrim fikrlarnigina aytganlar	1	6,6 %
Savollarga “ha”, “yoʻq” deb javob berganlar		

Bundan koʻrinib turibdiki, oʻyin mashgʻulotlari bolaning aqliy taraqqiyotiga, tafakkuriga, nutqining oʻsishiga katta taʼsir qiladi.

Savol-javob oʻyinlarini tashkil etish

Ogʻzaki nutqni shakllantirish, ayniqsa, bolalarda hozirjavoblik xususiyatini shakllantirishda bu usul juda yaxshi samara berishini kuzatdik. Bu usulni tanlashda hamda amaliyotda, tajribada qoʻllashda ham quyidagi muayyan tamoyillarga amal qildik:

- Suhbat uchun mos mavzu tanlash.
- Mavzuning bugungi kun talablari darajasida boʻlishiga erishish.
- Suhbatni musobaqa tarzida oʻtkazish.
- Suhbatda faol ishtirok etuvchilarni ragʻbatlantirib borish.

(Savol-javob usulidagi oʻyin mashgʻuloti matni ilova qilinadi.)

Bu oʻyinni oʻynash uchun kerakli jihozlar:

- Olma, olcha, behi, yongʻoq, karam, pomidor, archa, tol, terak, yalpiz, piyoz, kartoshka, lavlagi, sabzi, sholgʻom, turp, anor, kungaboqar, gʻoʻza, beda, qalampir, pista, yeryongʻoq, bodom,

tut, o'rik, gilos, uzum, qarag'ay, qayrag'och, tarvuz, bodring rasmlari solingan xaltacha.

➤ Dala, bog', tog', o'rmon rasmlari tushirilgan paketchalar.

Tarbiyachi o'yin tartibi va maqsadini bolalarga tushuntiradi.

Maqsad: bolalarning har bir mahsulot yoki mevaga ta'rifini eshitish hamda qaysi joyda o'sishiga qarab paketchaga to'g'ri joylashtira olishini kuzatish. Bu o'yin orqali bolalarning ham nutqi o'sadi, ham ularning topqirligi va harakatchanligi rivojlanadi.

O'yin tartibi: O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi. Bolalar ikki guruhga bo'lingan holda o'yinni o'ynaydilar. O'yin oxirida paketchalarga solingan rasmlar tahlil qilinadi. Rasmlarni paketchalarga to'g'ri joylashtirgan guruh g'olib guruh sanaladi.

Dala	Bog'	Tog'	O'rmon
Karam	Olma	archa	terak
pomidor	Behi	pista	qayrag'och

Gullar va o'simliklar nomlari asosida askiya (so'z o'yini) tashkil etish

Bu usul ham yaxshi samara berishi bilan xarakterlanadi.

Mazkur usul bolalarni tevarak-atrof-muhit, buyuk siymolar bilan tanishtirish mashg'uloti bilan qo'shib olib borildi.

Mashg'ulot rejasi va mazmuni ilovasi:

Mavzu: Buyuk siymolar

Abu Ali ibn Sino

Dasturning maqsadi:

- Bolalarning Abu Ali ibn Sino haqidagi bilim va tushunchalarini aniqlash, dorivor o'simliklar, ularning ahamiyati haqida suhbatlashish orqali bolalar nutqini o'stirish.
- Musobaqa o'yin orqali bolalarning harakatini va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Tasviriy faoliyat turlari bo'yicha bolalarda bor malakalarni mustahkamlash: rasm chizish, qirqib yopishtirish, o'ymakorlik, plastilin bilan ishlash.
- Savollarga to'liq javob berish, hikoya qilish orqali, tabiat mo'jizalari orqali bemorinsonlarni tuzatish mumkinligini bolalarga tushuntirish.
- Bolalar nutqiga yalpiz, na'matak, sachratqi, bargizub so'zlarini kiritish.
- Bolalarning tabiatga to'g'ri munosabatini shakllantirish.
- Tabiatni hamisha asrashga o'rgatish, tabiat insonlar uchun eng zo'r maskan ekanligini tushuntirish.
- "Yaxshi so'z — jon ozig'i" maqolining mazmunini bolalarga tushuntirish.

Kerakli jihozlar:

Abu Ali ibn Sinoning surati, dorivor o'simliklar: otquloq, jag'-jag', bargizub, yalpiz, isiriq, sachratqi, na'matakning mevasi, bu o'simliklarning barglari, rasmlari.

Tasviriy faoliyat uchun kerakli barcha jihozlar: bo'yoq, mo'yqalam, rangli qog'ozlar, yelim, eritib taxtachaga surtilgan sham, bigiz.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi:

- Bolajonlar, buyuk siymolardan kimlarni bilasiz?

- Bolalar, mana bu suratda kim tasvirlangan?
- Abu Ali ibn Sino kim boʻlgan?
- U qayerda tugʻilgan?
- Tabib deganda nimani tushunasiz?
- Tabiblar qanday ish bilan shugʻullanishadi?
- Abu Ali ibn Sino juda koʻp kitoblar yozgan. Siz ul zotning qaysi kitoblarini bilasiz?
- Siz qanday dorivor oʻsimliklarni bilasiz? Sanab bering-chi.
- Dorivor oʻsimliklar qayerlarda oʻsadi?
- Qanday dorilarning nomlarini bilasiz?
- Odam kasal boʻlmasligi uchun nimalar qilishi kerak?
- Uyda kasal boʻlib qolsangiz onangiz qanday usullar bilan davolaydi?
- Kasal odamda qanday alomatlar paydo boʻladi?
- Kasallikni davolash osonmi yoki uning oldini olish osonmi?
- Televizorda kasallikni davolash boʻyicha qanday koʻrsatuvlar olib boriladi?
- Kasalni davolaydigan mutaxassislarning nomlarini sanang.
- Uyda kasal boʻlib qolgan odamlar qanday yordam chaqiradilar?

Tarbiyachi bolalar bilan mana shunday savollar orqali savol-javob oʻtkazadi. Bolalarning javoblari tinglanadi, tarbiyachi ularning bergan javoblariga eʼtibor berishlari muhim hisoblanadi. Chunki bu savol-javoblar bolalarning ogʻzaki nutqini oʻstirishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

Bolalar suhbatdan soʻng buyuk siymolar haqida sheʼrlar aytishadi.

Tarbiyachi bolalarga Ibn Sinoning Podshohni qanday qilib davolagani haqidagi rivoyatni aytib beradi.

Ibn Sino kunlardan bir kuni, odatdagidek, dorivor oʻsimliklardan terib yursa, uni Podshohning odamlari koʻrib qolishibdi va undan soʻrashibdi:

— Sen kimsan? Bu yerda nima qilib yuribsan?

Ibn Sino: Men tabibman. Dorivor giyohlarni terib yuribman, — debdi.

Podshohning odami: Agar tabib bo‘lsang, Podshohimizni davolaysan. Davolamasang, o‘lasan, — debdi.

Ibn Sino rozi bo‘libdi va Podshohni tekshiribdi, lekin uning kasalini topolmabdi. Keyin Podshohga debdi:

— Podshohim, siz men bilan birga 40 kun yashashingiz kerak.

Podshoh rozi bo‘libdi. Ibn sino uni har kuni tabiatning turli joylariga: tog‘lar, buloqlar, qir-adirlar, dalalar, yaylovlarga borib kelishni buyuribdi. Podshoh sekin-asta tuzalib, 40 kun deganda, butunlay sog‘ayib ketibdi. Podshoh Ibn Sinoga rahmat aytib, minnatdorchilik bildiribdi. Ibn Sino rahmatni o‘ziga emas, tabiatga aytishini bildiribdi. Podshoh Ibn Sinoga sovg‘a-salomlar berib mukofotlabdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar, ko‘rdingizmi, demak, kasalning tuzalishida faqat dori-darmongina emas, balki toza havo, suvlar va shirin so‘zlarning ahamiyati juda katta ekan.

Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

— Bolajonlar, sizlarga hikoya yoqdimi?

— Hikoya nima haqda ekan?

— Ibn Sino Podshohni qanday davolabdi?

— Kasallikni doridan tashqari yana nimalar bilan davolash mumkin ekan?

Savol-javobdan so‘ng tarbiyachi javoblarni umumlashtirib, hikoyaga shunday yakun yasaydi:

— Bolajonlar, demak, biz tabiatni asrashimiz kerak ekan. Kasallarni davolashimizda havo, suv, dorivor o‘simliklarning ahamiyati juda katta ekan. Biz endi bundan buyon dorivor o‘simliklarni bosmaymiz, yulib tashlamaymiz. Dorivor o‘simliklarning bizning bog‘chamizda, uyimizda, ko‘chalarimizda o‘sib turishi bizni kasal bo‘lishdan saqlar ekan. Ibn Sino bobomiz yana shirin so‘z bilan ham Podshohni davolagan, unga yaxshi ta’sir ko‘rsatgan ekan. Agar u Podshohga “sizning kasalingizni davolab bo‘lmaydi”, deganida bu so‘z

Podshohga yomon ta'sir qilishi, Podshohning hayoti xavf ostida qolishi mumkin edi. Bu o'rinda biz "Yaxshi so'z – jon ozig'i" maqolining mazmunini yaxshi tushunib olishimiz kerak.

Keyin tarbiyachi xonaga kirib kelgan bir nuroniy insonga ko'zi tushadi va bolalarga e'tiborini qaratib shunday deydi:

— Ie, bolalar, davramizga Ibn Sino bobomiz tashrif buyurdilar. Kelinglar, biz ularni kutib olamiz.

Bolalar: Assalomu alaykum!

Ibn Sino: Vaalaykum assalom! Bu yer bolalar bog'chasimi?

Bolalar: Ha!

Ibn Sino: Men o'zinga shogird qidirib yuribman. Menga 56-bolalar bog'chasining bolalari dorivor o'simliklarni va ularning foydasi haqida ko'p narsani bilishadi, deb aytishdi. Men o'zim bilan birga bemor insonlarni ham olib kelganman. Menga kim ularni davolashda yordam bersa, o'sha bolani shogirdlikka qabul qilaman.

Tarbiyachi: Taqsir, bizning bog'chamizga kelib, juda yaxshi ish qilibsiz. Bizning bolajonlarimiz rostdan ham dorivor o'simliklar va ularning foydali tomonlarini juda yaxshi bilishadi. Ular giyohlardan anchasini to'plab qo'yishgan. Qani, Gullolaxon qizim, to'plab qo'ygan giyohlarni olib keling.

Qizcha giyohlarni olib kelib, Ibn Sinoga beradi.

Ibn Sino o'z qabulini boshlaydi.

1-bemor (Muhammadakbar): Voy-voy-voy, qornim og'riyapti. Bobojon, menga yordam bering.

Ibn Sino: Qani, bolalar, bu bemorga qanday yordam beramiz?

Oybek: Bu bemorga men yordam beraman. Mening ismim Oybek. Men shu bog'chada tarbiyalanyapman. Bu bemorga otquloq mevasini qaynatib ichirsak, qorin og'rig'i to'xtaydi.

Ibn Sino: Rahmat, barakalla, o'g'lim.

2-bemor (Muhammadjon): Voy, men ham kasalman. Mening og'zinga yaralar toshdi. Yordam bering, bobojon.

Mansur: Mening ismim Mansurbek. Bu bemorga men yordam beraman. Bu bemor yalpiz bargini chaynasalar, og‘iz yaralariga foyda beradi. yalpiz shoxlarini anor donasi bilan birga ichilsa, qusish bilan chiqib ketib to‘xtaydi. Mana, marhamat, oling.

2-bemor (Muhammadjon): Rahmat sizga.

3-bemor (Muhayyo): Mening ko‘nglim aynib qayt qilyapman.

Abdulboriy: Bu bemorga men yordam beraman. Mening ismim Abdulboriy. Siz jag‘-jag‘ o‘simligidan damlama qilib ichsangiz, tuzalib ketasiz. Mana, marhamat.

Bemor: Bu bolalar qanday yaxshi bolalar ekan-a. Rahmat sizlarga.

4-bemor (Mashrabjon): Voy-voy-voy, mening ko‘zim og‘riyapti. Menga yordam bering, iltimos.

Zebiniso: Bu bemor otamizga men yordam beraman. Mening ismim Zebiniso. Siz qoqigul o‘simligidan qaynatib ichsangiz, tuzalib ketasiz. U dori-darmonga boy. Ko‘z, jigarga davo bo‘ladi. Mana, marhamat.

Bemor: Rahmat sizga, qizim.

5-bemor (Mashhuraxon): Voy-voy-voy, mening tomog‘im og‘riyapti. Menga yordam bering, iltimos.

Shohruh: Bu bemorga men yordam beraman. Mening ismim SHohruh. Bu bemor na‘matak qaynatmasidan ichsalar va tomoq chayqasalar, shamollashdan va tomoq og‘rig‘idan xalos bo‘ladilar, marhamat.

Bemor: Rahmat.

Ibn Sino: Bolalar, men bemorlarimni qabul qilib bo‘ldim. Hammalaringizga katta rahmat. Men sizlarning hammangizni jon-dilim bilan shogirdlikka qabul qilishga qaror qildim. Chunki sizlar juda aqlli va zukko bolalar ekansizlar. Qani, ayting-chi, yana qanday dorivor o‘simliklar yodingizga tushdi?

Oygul: Men bargizub o‘simligini bilaman. Uning bargini og‘rigan joyga bog‘lab qo‘yilsa, og‘rig‘i darrov qoladi.

Farruh: Istima chiqqanda, sachratqi o‘simligini choyga o‘xshab damlab ichish kerak.

Sanamoy: Tish og‘riganda, tomoq og‘riganda, isiriq qaynatmasi bilan chayqash foydali.

Behzod: Isiriqni tutatish ham foydali, u uydagi viruslarni o‘ldiradi.

Ibn Sino: Barakalla, bolajonlar. Sizlar meni juda xursand qildinglar. Mana shunday oqil va zukko bolalar kelajakda buyuk insonlar, olimlar bo‘lib yetishadi va yurtimizning dovruq‘ini olamga yoyishadi

Tarbiyachi: Taqsir, bizning bolalarimiz ana shunday aqlli va bilimdon. Siz ham tashrif buyurib, bizni xursand qildingiz. Biz bilan yana biroz o‘tiring. Bolalarimizning tabiblik qilishni qanchalik egallaganligini o‘yinimizda ko‘rib, o‘zingiz guvohi bo‘lasiz.

(Tarbiyachi bolalarga o‘yin qoidasini tushuntirib, ularning qo‘llariga dorivor o‘simliklar rasmi yopishtirilgan varaqlarni beradi va ularni ikki guruhga ajratadi.)

Tarbiyachi bolalarni o‘simliklar haqidagi askiyaga taklif etadi.

Muhammadakbar: Hoy Gullolaxon!

Gullolaxon: Labbay.

Muhammadakbar: Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?

Gullolaxon: Aytganingizman.

Muhammadakbar: Bilganlar sizni Gullolaxon deydi. Bilmaganlar qo‘lingizdagi rasmingizga qarab “Yalpizxon” deydi

Gullolaxon: Hoy Oybek!

Oybek: Labbay!

Gullolaxon: Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?

Oybek: Aytganingizman

Gullolaxon: Bilganlar sizni Oybek deydi, bilmaganlar boshingizga aylantirib olgan varag‘ingizga qarab “Otquloq” deydi.

Askiya shu tarzda qizg‘in davom etadi.

Tarbiyachi: Bolajonlar, dam olib bo‘ldingizmi? Endi sizlarni dorivor o‘simliklarni tasviriy faoliyat turlari bo‘yicha tasvirlashga taklif etaman.

Bolalar o‘smliklarni rasm chizish, plastilindan yasash kabi yo‘llar bilan tasvirlashadi. Tarbiyachi bilan Ibn Sino bobo bolalarning ishlarini diqqat bilan ko‘rib chiqadilar va baholaydilar. So‘ngra Ibn Sino bobo bolalar bilan xayrlashib chiqib ketadi. Tarbiyachi mashg‘ulotni yakunlaydi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish qanchalik qiyin bo‘lgani bilan, bu mashg‘ulot bolalarda qiziqish uyg‘otdi, ularning ruhini, o‘tmish ajdodlarimiz bilan, ularning qoldirgan ulkan merosi bilan faxrlanish hissini o‘stirdi hamda bolalar “Askiya” payrovi haqida ozgina bo‘lsa-da, tushunchaga ega bo‘lishdi. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida og‘zaki nutq ustida ishlashning bunday rang-barang turlari cheksiz. Biz tajribalar o‘tkazish jarayonida shunga ishonch hosil qildikki, bolalar tarbiyachi qo‘llagan munosib mashq yoki usullarni bajonidil qabul qilishib, unda faol ishtirok etishadi. Bunday usul va mashqlar, shubhasiz, bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda asosiy vositalardan bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Bolalar bogʻchalarida oʻtkazilgan tajribalar, kuzatilgan tadbirlar, mashgʻulotlar, oʻqilgan uslubiy qoʻllanmalardagi nutq oʻstirishga oid bir qator fikrlar asosida maʼlum xulosalarga keldik:

Bolalar bogʻchalarida bolalarning ogʻzaki nutqini oʻstirish masalasiga barcha mashgʻulotlarda, mashgʻulotlardan tashqari holatlarda ham jiddiy eʼtibor berish talab etiladi.

Bolalar bogʻchalarida bolalarning ogʻzaki nutqi sifat darajasini namunali deb boʻlmaydi. Bolalarning ogʻzaki nutqi nutqiy gʻalizliklar, dialektal soʻzlarni koʻp ishlatish, til vositalaridan unumli foydalana olmaslik, lugʻaviy jihatdan kambagʻallik, talaffuzdagi nuqsonlar sezilib turibdi. Bu holat esa hukumatimiz siyosatining bosh masalalaridan biri hisoblangan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablariga toʻla javob bermaydi.

Yuqorida sanab oʻtilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish uchun har bir tarbiyachi, har bir uslubiy birlashma tomonidan maxsus tadbirlar, bolalar nutqi va tafakkurining oʻsishiga xizmat qiluvchi mashgʻulotlar rejasi tuzib olinishi va bu rejalar asosida qatʼiy ish olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Oʻtkazgan tajriba mashgʻulotlarimizning natijasini tahlil qilish davomida shunga guvoh boʻldikki, nutq oʻstirish mashgʻulotlarida bolalar nutqini oʻstirish uchun turli ish usullari, didaktik oʻyin mashgʻulotlaridan unumli foydalanish kutilgan samaralarni berishi tabiiy.

Bolalar nutqini rivojlantirishda ularning ijodiy faoliyatini tashkil qilish, oʻz fikrlarini erkin ifodalash koʻnikmalari ustida ishlash maqsadga muvofiqdir.

Bolalarning ogʻzaki nutqi tarbiyachilar va ota-ona, oila, mahalla tomonidan doimiy nazorat ostiga olinishi va tahlil qilib borilishi zarur.

Biz bogʻcha va oila hamkorligida “Zumradoylar” koʻrik tanlovini oʻtkazishga muvaffaq boʻldik. Ushbu koʻrik tanlovda ishtirok etgan Durdonaxon Oybek qizining quyidagi sheʼrini keltirib oʻtmoqchimiz:

Assalom, azizlar, dugonalarim,
Ozod, hur diyorning Zumradoylari.
Assalom, Yurtboshim mehrini bergan
Baxtli zamonaning erkatoylari.

Sizlarga o‘zimni bir tanishtiray,
Ismim Durdonaxon Oybek qiziman,
Dildoraxon erur onajonginam,
Ko‘hna Andijonning naq yulduziman.

Bobom Abdusattor, mantiq ustasi,
Oila ustuni, fidoyi, halol.
Uyimizning fayzi buvijonginam,
Ular mehri bilan topyapman kamol.

Odob chizig‘idan chiqmasman zinhor,
Yalqovlikka raqib, mehnatga do‘stman.
Mehnatni sevganning yuzidir yorug‘,
Maqtanchoq demanglar, saranjom qizman.

Hozircha bog‘chada olyapman ta’lim,
Ertaga maktablar quchog‘in ochar.
Bog‘chada o‘rgangan odob, tarbiyam
Yo‘llarim yoritib, qutlug‘ nur sochar.

Maqsadim – xalqimga, hur Vatanimga,
Oilamga sodiq farzand bo‘lishdir.
Muhtaram Yurtboshim ishonchin oqlab,
Buyuk Vatanimga xizmat qilishdir.

Bolalarning ogʻzaki nutqini oʻstirish hamda xotirasini mustahkamlashda sheʼr yodlatishning ahamiyati katta. Ogʻzaki nutq malakalarini yaxshi egallagan bolalar oʻrtasida turli koʻrik tanlovlari oʻtkazib borilishi maqsadga muvofiqdir.

F o y d a l a n i l g a n a d a b i y o t l a r r o ‘ y x a t i

O‘zbekiston Respublikasining qonun va hujjatlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. T., 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning “2017 – 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2016 -yil, 29- dekabr.
3. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash dasturini amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan qo‘llanma. Respublika ta’lim markazi. T., 1999.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., O‘zPFITI, 2000.
5. Uchinchi mingyillikning bolasi. Tayanch dasturi. Me’yoriy hujjat. T., “Ma’rifat-Madadkor”, 2000.

Rahbariy adabiyotlar

6. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”, 1999.

Asosiy adabiyotlar

7. G‘aybullayeva M va b. Nutq o‘stirish. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va badiiy adabiyot. T., 1996.
8. Jo‘rayev K va boshqalar. Kichkintoylar nutqini o‘stirish. T., “O‘qituvchi”, 1988.
9. Jo‘rayev K., Qodirov X. Kichkintoylar nutqini o‘stirish. T., “O‘qituvchi”, 1995.
10. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T., O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.

11. Mo‘minova L., Nurkeldiyeva D. 5 – 7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirish dasturi. “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 2014, 7-son, 3 – 9-betlar.
12. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. T., “O‘qituvchi”, 1993.
13. Razbayeva M. E., Ahmedova X. A. Nutq o‘stirish metodikasi. T., “O‘qituvchi”, 1995.
14. Shodiyeva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. T., “O‘qituvchi”, 1995.
15. Yusupova P. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T., “O‘qituvchi”, 1995.

To‘plamlar, jurnallar

16. Durdona. Bog‘chalar uchun badiiy adabiyotlar xrestomatiyasi. To‘plam. T., “Cho‘lpon” nashriyoti, 1995.